ONLINE JOURNAL
E-ISSN:3060-5490

INSTITUTE OF UZBEK NATIONAL
MUSICAL ART NAMED AFTER YUNUS RAJABI

Milliy Madaniyat Jurnali - Журнал Национальной Культуры

Journal of national CULTURE

Поступила: 16.01.2026 · Принята: 02.03.2026 · Опубликована: 31.03.2026
DOI: https://doi.org/10.64681/e6kb1d56

ilmiy uslubiy jurnali – научно-методический журнал – research and methodological journal

Institute of Uzbek National Musical Art named after Yunus Rajabi
JOURNAL OF NATIONAL CULTURE, 1(2), 2026
www.jnculture.uz

Buxoro shashmaqomining xorazm maqomlari tartibotiga ta’siri

(The Influence of the Bukhara Shashmaqom on the System of Khorezm Maqoms)

Juratbek Sherimmatov

The Department of History and Theory of Uzbek Maqom,
The Institute of Uzbek national musical art named after Yunus Rajabiy,
100001, Mustaqillik, 1.
Uzbekistan/Tashkent
E-mail: sherimmatov17@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0000-0001-8582-8656

Annotatsiya

Mazkur maqola Buxoro Shashmaqomining Xorazm maqomlari tartibotiga ta’siri masalasini tarixiy, nazariy va ilmiy-amaliy jihatdan kompleks tahlil etishga bag‘ishlanadi. Unda Xorazm maqomlarining shakllanish bosqichlari, ularning ichki tuzilishi, bo‘lim va maqom qismlari tizimi, turkumiylik tamoyillari hamda maqomlarning chertim va aytim yo‘li qismlaridagi o‘ziga xosliklar atroflicha yoritiladi. Tadqiqotda XVIII asrda mukammal tizim sifatida uzil-kesil shakllangan Buxoro Shashmaqomining Xorazm hududidagi maqom an’analariga ko‘rsatgan bevosita va bilvosita ta’siri qiyosiy-tahliliy, majmuaviy usul asosida ochib beriladi. Xususan, lad asoslari, parda tuzilmasi, usul tizimi, Mansur-Manzum qismlari va taronalar ketma-ketligi, tanimaqom, suvora, talqin, nasr, naqsh kabi maqom qismlarining joylashuvi hamda kompozitsion mantiqiylik jihatlari ilmiy mezonlar asosida solishtiriladi.

Shuningdek, Xorazm “maqomoti” tizimi tarkib topishida Shashmaqomning strukturaviy modeli qanday omil bo‘lib xizmat qilgani, mahalliy ijrochilik maktabi mazkur modelni qay tarzda o‘zlashtirib, hududiy estetik mezonlar asosida qayta talqin etgani asoslab beriladi. Maqom sho‘balarining ichki qonuniyatlari, ohang rivoji, uslubiy qatlam, ijro amaliyotidagi an’anaviy mezonlar hamda tarixiy manbalar bilan bog‘liq dalillar umumlashtirilib, ilmiy xulosalar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: Buxoro Shashmaqomi, Xorazm maqomlari, maqomot, lad, parda, usul, advor, yetti maqom, suvora, peshrav.

Abstract

This article is devoted to a comprehensive historical, theoretical, and scientific-practical analysis of the influence of the Bukhara Shashmaqom on the

structural system of the Khorezm maqoms. It examines in detail the stages of formation of the Khorezm maqoms, their internal structure, the system of sections and constituent parts, the principles of cyclic organization, as well as the distinctive features of their instrumental (chertim) and vocal (aytim) components.

The study, based on comparative-analytical and integrative methods, reveals both the direct and indirect impact of the Bukhara Shashmaqom—finally established as a coherent system in the eighteenth century—on the maqom traditions of the Khorezm region. In particular, it compares modal foundations, pitch organization (parda structure), rhythmic-usul system, the Mansur–Manzum sections and the sequence of tarona, as well as the compositional logic underlying the placement of such maqom parts as tanimaqom, suvora, talqin, nasr, and naqsh, in accordance with scholarly criteria.

Furthermore, the article substantiates the role of the structural model of Shashmaqom in the formation of the Khorezm “maqomoti” system, analyzes the process of its assimilation by the local performance school, and explains its reinterpretation in line with regional aesthetic principles. The internal regularities of maqom branches, melodic development, stylistic layers, traditional performance norms, and relevant historical sources are synthesized, leading to well-grounded scholarly conclusions.

Keywords: Bukhara Shashmaqom, Khorezm Maqoms, maqom, lad, parda, usul, advor, seven maqoms, suvora, peshrav.

Аннотация

Настоящая статья посвящена комплексному историческому, теоретическому и научно-практическому анализу проблемы влияния Бухарского Шашмакома на систему построения хорезмских макомов. В работе подробно рассматриваются этапы формирования хорезмских макомов, их внутренняя структура, система разделов и частей макома, принципы цикличности, а также специфические особенности инструментальных (чертим) и вокальных (айтим) разделов.

В исследовании на основе сравнительно-аналитического и комплексного методов раскрывается прямое и косвенное влияние Бухарского Шашмакома, окончательно сформировавшегося как целостная система в XVIII веке, на макомные традиции Хорезмского региона. В частности, по научным критериям сопоставляются ладовые основы, строение звукорядной (пардовой) системы, метроритмическая (усульная) организация, части Мансур–Манзум и последовательность тарона, а также композиционная

логика расположения таких разделов, как танимакам, сувора, талкин, наср, накш и других.

Кроме того, обосновывается роль структурной модели Шашмакома в формировании системы хорезмского «макомоти», анализируется процесс её освоения местной исполнительской школой и последующая интерпретация в соответствии с региональными эстетическими критериями. Обобщаются внутренние закономерности макомных шоб, развитие мелодической линии, стилевые пласты, традиционные нормы исполнительской практики и исторические источники, на основе чего формулируются научные выводы.

Ключевые слова: Бухарский Шашмаком, Хорезмские макомы, макомат, лад, парда, усуль, адвор, семь макомов, сувора, пешрав.

Ma’lumki, XIX asrda Xorazm maqomlari turli an’anaviy yo‘ldagi maqom shakllarining bir butun tizim sifatida tartib topishi orqali taraqqiylashdi. O‘zbek maqom turkumlarining bir qator cholg‘u va ashula yo‘llarida aynan lad va usul xususiyatlari ustuvor ahamiyat kasb etib, ularning o‘zaro munosabati orqali muayyan maqom shakllari yuzaga keladi. Shubhasiz, maqom konstruktiv-kompozitsion shakl bo‘lib, qator badiiy-musiqiy unsurlardan tarkib topadi. Har bir unsurning mazkur turkumda o‘z o‘rni mavjud, yaxlit tizim holiga kelishida o‘ziga xos va umumiy funksiyalarni bajaradi.

Buxoro Shashmaqomi – muayyan ketma-ketlikdagi mushtarak maqomlar tizimi. Bir necha davrlar mobaynida mumtoz musiqa durdonalari o‘z hajmi va ko‘lamini kengaytirib, xalqimizning amaldagi musiqiy urf odatlarida o‘zining yetakchi o‘rniga ega bo‘ldi. Maqom bilimdoni Otanazar Matyoqubov – “Shashmaqomning amaldagi shaklini, jumladan, Buxoroda ijro etilib kelinayotgan andozasini ham bizning uchun “jonli musiqiy meros”, amaliyotda pishib yetgan mo‘tabar urf-odat” deydi. XVIII asrda Buxoroda uzil-kesil shakllangan Shashmaqom turkumi o‘zbek maqomlarining eng yuksak, amaliyotda ustivor maqom turkumi hisoblanadi.

Ma’lumki, Xorazmda O‘n ikki maqom va uning turli tarmoqlari turli yirik shaharlararo madaniy aloqalar orqali kirib kelgan, shoir va musiqa ijrochilari tomonidan keng imte’molda bo‘lgani shubhasiz. Shuningdek, xalq orasida Dutor maqomlari va Surnay maqomlarining turli yo‘llari ijod qilingani ham muhim manba.

Shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, Xorazm Olti Yarim maqomi turkumining shakllanishida XVIII asrda uzil-kesil shakllangan Buxoro Shashmaqomi turkumining andozasi muhim ahamiyat kasb etdi. Bu qadimdan xalq orasida hamda saroy musiqasida ma’lum va mashxur bo‘lgan yirik maqomlar, shuningdek, maqom yo‘llarini muayyan tartib qilish, notalashtirish uchun muhim bosqich sifatida qayd etish mumkin.

Buxoro Shashmaqomi va Xorazm Olti Yarim maqomi o‘rtasida umumiy va farqli tomonlari mavjud. Ayrim qismlar, masalan, chertim va aytim yo‘llaridagi maqomlar o‘xshash bo‘lsa, ayrimlari esa avvaldan ma’lum bo‘lgan mahalliy an’analar asosida iste’dodli bastakorlar tomonidan ijod qilinadi. Buxoro Shashmaqomi ijodiy o‘zlashtirilib, uning turkumiylik qiyofasiga o‘zgarishlar kiritildi. Maqomlarning yangicha usullari, parda-lad tizimi, cholg‘u va aytim yo‘llari yuzaga keldi. Bunda xorazmlik ijrochilar va maqom shinavandalarning o‘rni katta.

Xorazmda maqomlar tasnifoti “Xorazm musiqiy tarixchasi”da quyidagicha tartibi keltiriladi:

1. Maqomi Rost;
2. Maqomi Navo;
3. Maqomi Segoh;
4. Maqomi Dugoh;
5. Maqomi Buzrug;
6. Maqomi Iroq;
7. Maqomi Panjgoh.

Mazkur tartibga ko‘ra har bir maqom alohida berilgani, ularning chertim-aytim qismlari mavjudligi va XX asrning birinchi choragida to‘liq maqom tizimi

sifatida shakllangani xorazmlik yetuk musiqashunoslar Mulla Bekjon Rahmon o‘g‘li va Muhammad Yusuf Devonzodalar tomonidan ta’kidlanadi.

Shuningdek, “yarim” maqom sifatida qaralgan Panjgoh xususida quyidagicha fikr ham yuritiladi: “...bu taqsimotda maqomi Rostdan sanalgan Panjgoh nag‘masi yarim maqom hisobida yuritilar edi. Biroq, buni Muhammad Rasul Mirzaboshining ijtihodi bilan bir necha nag‘malarning qo‘shganlaridan keyin buni ham butun maqomlar barobarida bir maqomga hisob bo‘lib shuning birla Xorazmning nag‘malari yetti maqomga to‘ldirildi” [2, b. 16]. Mazkur, fikrga ko‘ra Xorazm maqomlari to‘liq 7 maqom tartibida shakllangan deyish mumkin. Bundan tashqari, Xorazm maqomlarini Mulla Bekjon Rahmon o‘g‘li va Muhammad Yusuf Devonzodalar “Xorazm yetti maqomi nag‘malari” deya keltirishgan. Biroq, Panjgoh maqomining aytim qismlarining nota matni yo‘qligi va Xorazm tanbur chizg‘ilaridan ham ma’lumotlar yo‘qligi sabab, yarim maqom hisoblangan bo‘lishi mumkin.

Xorazm maqomlarining Panjgoh maqomi xususida Abdurauf Fitrat o‘zining dolzarb mulohazalarini keltiradi [3, b. 11]. U Panjgoh maqomi alohida maqom bo‘la olmasligi, chunki Rost maqomidan sanalishi va faqat mushkilot qismlaridan iboratligi aytadi. Yettinchi maqom bo‘lishi uchun Nasr bo‘limi va taronalar bo‘lishi lozimligi, umumsharq musiqasida ham “panjgoh” nomli ayricha bir maqom yo‘qligini ta’kidlaydi. Biroq, Muhammad Rasul Mirzaboshi tomonidan Panjgoh maqomi aytim yo‘llari bilan to‘ldirilganini ham inkor etmaydi.

Lad-parda tizimi nuqtai nazardan, maqom bilimdoni Otanazar Matyaqubov Buxoro Shashmaqomining Nasr bo‘limi birinchi guruh sho‘balarida asosiy qismlar sifatida Sarahbor, Nasr va ularga ergashgan o‘ziga xos sho‘balarini keltirib, ularni birlashtiruvchi turkumning asosiy lad ustunlarini quyidagicha jadvalda keltiradi. [4, b. 118] Lad tizimining bosh tayanchlari sifatida quyidagi parda tuzilmalariga ishora qilinadi.

1-jadval

SHASHMAQOM PARDA TIZIMI					
BUZRUK	ROST	NAVO	DUGOH	SEGOH	IROQ
Nasrulloiy	Ushshoq	Bayot	Chorgoh	Hijoz	Muhayyar
Uzzol	Sabo	Oraz	Oraz	Xoro	(Turk)
Chorgoh-Muhayyari	Panjgox	Husayniyi Navo	Husayniyi Dugoh	Ajam	(Gulyor)

Tojikistonlik maqomshunos olim, ijrochi va aruz ilmi mutaxassisi – Abduvali Abdurashidov Shashmaqom maqomlari negizidagi ladlarni asl va uning yondosh turlariga ajratadi. Xususan, lad tizimini 3 ta bosqichda o‘rganib chiqadi. Bunda, 6 maqom, 12 sho‘ba va 6 ovoza asosida Shashmaqomning lad tizimi tashkil topishini ilmiy hamda amaliy tomondan dalillab beradi.[5, b. 31] Ko‘rib turganimizdek, Shashmaqom parda tizimida bosh lad tuzilmalari sifatida birinchi qator lad tuzilmalarining nomlari ko‘rsatilib, ularga yondosh va ergashib keluvchi sho‘ba hamda ovozalarning lad tuzilmalari keltiriladi. Shunga ko‘ra Shashmaqom majmuasi tarkibidagi maqomlar lad tizimi tartiblanadi va boshqa o‘ziga xos xususiyatlariga ko‘ra ketma-ketlikda joylashadi.

Bizga ma’lumki, Shashmaqomdagi maqomlarning tarkib topishida ikkita unsur muhim hisoblanadi. Bular, usul va parda (lad) nomlaridir. Ularning qo‘shilishi orqali muayyan maqom sho‘basi yuzaga keladi. Masalan, Sarahbori Rost, Talqini Uzzol, Nasri Bayot, Muhammasi Panjgoh, Savti Kalon, Qashqarchai Rok va hokazo.


Shunga ko‘ra parda-lad tuzilmalari orqali maqom sho‘balari birlashib, olti maqom tizimi yuzaga keladi. Usullar esa har bir maqom turkumida takrorlanib kelishi va kichik moslanishlarga uchrashi tabiiy. Masalan, Talqini Uzzol, Talqini Ushshoq, Talqini Bayot, Talqini Chorgoh va boshqalar. Ya’ni, usul o‘zgarmas doira bo‘lsa, undagi lad tuzilishi o‘zgarib kelaveradi.

Shashmaqom turkumi cholg‘u va ashula yo‘llariga bo‘lingan. Cholg‘u yo‘li – mushkilot deb yuritilib, o‘z tarkibida tasnif, tarje’, gardun, muxammas, saqil kabi maqom qismlari asosiy hisoblanadi. Shuningdek, peshrav, hafifi, samoiy kabi


qismlar ham uchraydi. Mazkur cholg‘u yo‘llarida usullar deyarli bir xil keladi. Lad tuzilishi har bir maqomga ko‘ra o‘zgarib turadi. Masalan, Rost maqomida Muxammasi Rost, Muxammasi Ushshoq, Muxammasi Panjgoh kelsa, Navo maqomida esa Muxammasi Navo, Muxammasi Bayot va Muxammasi Xusayniy qismlari keladi. Mazkur cholg‘u yo‘llarida usul bir xil, biroq lad tuzilishi o‘zgacha ko‘rinishdadir.

Rost maqomidagi muxammas qismlarini lad tuzilishini solishtirib ko‘rsak:


Muxammasi Rost



Muxammasi Ushshoq




Muxammasi Panjgoh



Qayd etish kerakki, uchta maqomda lad tovushqatori deyarli bir xil hisoblanadi. Biroq, ularning shoxpardasi turlichadir. Yani, tovushqatorning turli bosqichlaridan maqomlarning shoxpardasi joylashadi.

3-jadval



Muxammasi Rost – do^1

Muxammasi Ushshoq – sol^1

Muxammasi Panjgoh – sol^1 (Si-bekor)


Xorazm maqomlarining chertim yo‘li – Mansur deya yuritiladi. Shashmaqomdagi ko‘pchilik cholg‘u qismlari xorazm maqomlarida ham uchraydi. Biroq, xorazmlik bastakorlar, ijrochilar, sozandalar va musiqa ixlosmandlari musiqiy estetikasiga ko‘ra o‘zgarishlarga uchragan. Shuningdek, Shashmaqomda uchramaydigan bir nechta qismlar ham ijod etilgan, ayrim qismlar esa mukammalroq ko‘rinishga ega bo‘lgan (Chertim yo‘llaridagi Peshravva Ufar qismlarining ijod qilinishi, Tarje’i Rost (usuli va xonalarning rivojlanishi), Tasnifi Navo (har xonadan keyin bozgo‘y kiritilgan), Navo maqomidagi Katta muxammas va Nim saqil qismlari yaratilishi, Muxammasi Dugoh puhtaroq ko‘rinishga ega bo‘lishi va h.k.).

XIX asr oxirlarida va XX asr boshlarida Xorazm maqomlari chertim yo‘lidagi birinchi qism maqom nomi bilan atalgan. Masalan, Maqomi Rost, Maqomi Navo, Maqomi Iroq va h.k. Biroq, XX asr ikkinchi yarmidan keyingi M.Yusupov nota to‘plamlarida esa Tani maqom deya yuritila boshlangan. Tanimaqomi Rost, Tani maqomi Buzruk, Tani maqomi Iroq va h.k. Xorazm maqomlarining chertim va aytim yo‘li qismlaridagi Tanimaqomning usuli bir xil keladi. Bu esa maqom turkumida asosiy e’tiborni uning maqom usuliga emas, balki kuy ohangiga jalb etadi. Ya’ni, oddiy ikki hissali (ayrim maqomlarda to‘rt hissali) usulda maqomning parda tizimi yoki maqom kuy intonatsiyasi birinchi o‘rinda namoyon bo‘ladi.


Chertim yo‘lining oxirgi qismi esa Ufori deb yuritiladi va u Panjgoh maqomidan tashqari qolgan barcha maqom qismlarida mavjud (M.Yusupovning 1987-yilda nashr qildirgan Xorazm maqomlari to‘plamining Panjgoh maqomida Ufar qismlari ham ijod etilgani va maqomning nota matnlari keltiriladi). Ufar maqom sho‘basi Buxoro Shashmaqomida faqat ashula bo‘limining oxirgi sho‘basi sifatida keladi va cholg‘u yo‘llarida uchramaydi. Xorazm maqomlarining ham chertim, ham aytim yo‘llari ufori qismlari bilan tugallanadi. Matniyoz Yusupov qayta nashr qilingan 1980-1987 yillardagi nota to‘plamining chertim yo‘llarida

Gulufar qismlari ham uchraydi. Mazkur ufar va gulufar qismlarning usullari juda o‘xshash bo‘lib, aytim va chertim yo‘lidagi usullari bir xil ishlangan.

Ufar qismlarining usuli:



Gulufar qismlarining usuli:



Xorazm maqomlari turkumining o‘ziga xos masalalalaridan biri shuki, turkumning boshlanuvchi qismi Tanimaqom bo‘lsa, tugallanuvchi qismi esa Ufar bilan yakunlanadi. Bunday tartib, chertim qismlarida va aytim qismlarida ham kuzatiladi. Ularning usuli ikki yo‘lda ham bir xilligi saqlanib qoladi.

Xorazm maqomlarining Buxoro Shashmaqomidan farqli maqom qismlariga chertim yo‘llaridan – Peshrav, Murabba, Musaddas, Nim saqil, Se usuli, Chor usuli, Zarb ul fath (Fohtak zarb) kabi maqom qismlari uchraydi. Mazkur qismlar Shashmaqomda shu nom bilan atalgan qismlar mavjud emas. Biroq, ayrim cholg‘u yo‘llarining varianti sifatida ijod qilingan bo‘lishi mumkin.

Demak, maqomning turkumi funksional planda konstruktiv asosning muayyan munosabati va keng ma’noda tushunilgan ornamentidir. Qismlarning turli ko‘rinishlaridagi kuchiga qarab, sho‘ba deb ataluvchi yuqorida keltirilgan qismlar, shaklning lad va kompozitsion “qovurg‘asi” bo‘lib, ushbu qismlarning o‘ziga xos turkumiyligini tashkil qiladi. Bundan tashqari, mavzuiy o‘xshashlik belgilari, makom sho‘basining tuzilishi va muayyan xususiyatlari doirasi, bu muammolarga kiruvchi - lad tuzilishi, kompozitsion sxemasi, shaklning kengayish jarayoni, uning dinamik kesimi - hozirgi kungacha jiddiy o‘rganilayotgani va turli tadqiqotlar olib borilayotgani fikrimizning dalilidir. Mavzular orasidagi metro-ritmik erkinligi, maqom sho‘basi kuyining improvizatsion elementlari tufayli o‘ziga xos komozitsion fenomeni hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rajabov I. Maqomlar. — Toshkent: San’at, 2006.
2. Mulla Bekjon Rahmon o‘g‘li, Muhammad Yusuf Devonzoda. Xorazm musiqiy tarixchasi / nashrga tayyorlovchi B. Matyoqubov. — Toshkent: Yozuvchi, 1998.
3. Fitrat. O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi. — Toshkent: Fan, 1993.
4. Matyakubov O. Xorazm dutor maqomlari va olti yarim maqomi. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018.
5. Abdurashidov A. Shashmaqom. Maqomi Rost. — Dushanbe, 2016.
6. Sherimmatov J. Maqom ashula yo‘llarining kompozitsion va lad masalalari // Inter Education & Global Study. — 2024. — № 10. — 468–475 b.
7. Shukhratovich S. Study of the theoretical foundations of Uzbek maqom // JournalNX. — 481–485 b.
8. Haydarova N. Saraxbari Oromijon maqomining ijro namunalari tahlili // Oriental Art and Culture. — 2025. — T. 6, № 4. — 79–86 b.
9. Berdikhanova S. The function of singing in the architecture of songs of Karakalpak traditional music // Eurasian Music Science Journal. — 2019. — № 2. — 23–33 b.
10. Abdusamatova G. Concerning the opera “Kumush” composed by Mirhalil Mahmoudov // Central Asian Journal of Arts and Design. — 2024. — T. 5, № 6. — 137–143 b.
11. Shukurov Z. O‘zbek kompozitorlarining vokal-cholg‘u ijodida mumtoz musiqa ohanglari // Образование и наука в XXI веке. — 2024. — № 57-4.
12. Botirova N. Sufiyona kalom — a genre of traditional Kashmir music // Проблемы современной науки и образования. — 2022. — № 1 (170). — 107–111 b.

References

1. Rajabov, I. *Maqomlar* [Maqoms]. Tashkent: San’at, 2006. (in Uzbek)
2. Mulla Bekjon Rahmon ogli, and Muhammad Yusuf Devonzoda. *Xorazm musiqiy tarixchasi* [History of Khorezm Music]. Edited by B. Matyoqubov. Tashkent: Yozuvchi, 1998. (in Uzbek)
3. Fitrat. *O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi* [Uzbek Classical Music and Its History]. Tashkent: Fan, 1993. (in Uzbek)
4. Matyakubov, O. *Xorazm dutor maqomlari va olti yarim maqomi* [Khorezm Dutor Maqoms and the “Six and a Half” Maqoms]. Tashkent: Yangi asr avlodi, 2018. (in Uzbek)
5. Abdurashidov, A. *Shashmaqom. Maqomi Rost* [Shashmaqom. Maqom Rost]. Dushanbe, 2016. (in Uzbek)
6. Sherimmatov, J. “Maqom ashula yo‘llarining kompozitsion va lad masalalari” [Compositional and Modal Issues of Maqom Vocal Paths]. *Inter Education & Global Study*, no. 10 (2024): 468–475. (in Uzbek)
7. Shukhratovich, S. “Study of the Theoretical Foundations of Uzbek Maqom.” *JournalNX*, 481–485.
8. Haydarova, N. “Saraxbari Oromijon maqomining ijro namunalari tahlili” [Analysis of Performance Samples of the “Saraxbari Oromijon” Maqom]. *Oriental Art and Culture* 6, no. 4 (2025): 79–86. (in Uzbek)
9. Berdikhanova, S. “The Function of Singing in the Architecture of Songs of Karakalpak Traditional Music.” *Eurasian Music Science Journal*, no. 2 (2019): 23–33.

10. Abdusamatova, G. “Concerning the Opera ‘Kumush’ Composed by Mirhalil Mahmoudov.” *Central Asian Journal of Arts and Design* 5, no. 6 (2024): 137–143.
11. Shukurov, Z. “O‘zbek kompozitorlarining vokal-cholg‘u ijodida mumtoz musiqa ohanglari” [Classical Musical Intonations in the Vocal-Instrumental Works of Uzbek Composers]. *Obrazovanie i nauka v XXI veke*, no. 57-4 (2024). (in Uzbek)
12. Botirova, N. A. “Sufiyona kalom — a Genre of Traditional Kashmir Music.” *Problemy sovremennoy nauki i obrazovaniya*, no. 1 (170) (2022): 107–111.